

Andijon Davlat Universiteti
Tarix fakulteti 3-“v” guruh talabasi
Qurbonova Gulandonning
Tarix o’qitish metodikasi fanidan
bajargan

REFERAT

**\Mavzu: Tarix darslarida milliy mafkura va dunyoqarashni
shakllantirish**

Bajardi : G.Qurbonova

Tekshirdi : A.Alisherov

Andijon - 2016

REJA

Kirish

1 Milliy mafkura va g'oyaning mohiyati

2 G'oya tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati

3 Mafkuraviy plyuralizm

Xulosa

Kirish

Biz bugun Milliy mafkura va g'oyaviy dunyoqarashning dastlabki mavzusini Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning ob'ektiv zarurligi. Faning predmeti, va vazifalari. Milliy mafkura g'oyasining negizlari va asosiy prinsiplari. Milliy mafkura va dunyoqarashni turli xil fikr, g'oyalarga munosabati, ijtimoiy ma'naviy hayotda aks etishi. Inson va jamiyat taraqqiyotida g'oya va mafkuralarning o'zaro munosabati. Inson va jamiyatning o'z maqsadi va taraqqiyot yo'lining mavjudligi va ularning vobastaligi. Inson ongi va qalbi uchun kurash. Jamiyatda g'oyaviy bo'shliqning bo'lmasligi. Milliy g'oya har bir xalqning o'zligini saqlab qolish va o'ziga xos rivojlanish ehtiyoji hamda kafolati ekanligi. Mustaqil O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasi shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari va tarixiy manbalari. Milliy g'oyaning xalq ishonchi va e'tiqodiga aylanishi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy xususiyatlari. Milliy rivojlanish va milliy istiqlol g'oyasining o'zaro bog'liqligi va ularning qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zaruriyati. O'zbekiston xalqi ijtimoiy hayot sohalari; milliy-madaniy merosi, urf-odatlar, qadriyatlar, tili, madaniyati, tarixi, ruhiyati negizlarini o'zaro bog'liqligi va mushtarakligi hamda ularning milliy g'oyada aks etishi. Milliy istiqlol g'oyasining «sinfiylik», «partiyaviylik» tamoyillaridan xoliligi. Milliy istiqlol g'oyasining maqsadi va vazifasi. Yoshlarga milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni singdirish. Milliy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Ularni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga yo'naltirish. Milliy istiqlol g'oyasi fanining huquqni muhofaza qilish xodimlari faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati Islom Karimov asarlarida milliy istiqlol g'oyasining ilmiy-nazariy asoslanishi va uni amalga oshirilish yo'l-yo'riqlarining belgilab berilganligi. Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning O'zbekistonda huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyati kabi masalalarni ma'ruza lavomida o'rganishga bag'ishlaymiz.

1. Milliy mafkura va g'oyaning mohiyati

Milliy mafkura va g'oyaning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari Islom Karimov asarlarida asoslangan ta'limot. Uning mazmuni quyidagilardan iborat:

- tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezonini bo'lish;
- xalqimizni tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini o'tash;
- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy goyalar tizimini o'zida mujassam etish;
- har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro'yobga chi-qarishiga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olish;
- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqodning manbai bo'lish;
- O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taallukli bo'lish;
- mamlakatimiz aholisi ongi va qalbida «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg'uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish;
- turli millat, qatlam, din vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsialistik fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lish;
- biron-bir dunyoqarashni mutlaklashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lvda siyosiy qurolga aylanmaslik;
- har qanday ilgor goyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish;
- sub'ektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan xoli va jamoatchilikning xolis fikriga tayanuvchi ob'ektiv mafkura bo'lish;
- so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish;
- davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan goya, manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni, yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo'lish. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu qayd etilgan sifatlariga ega bo'lgan taqsihdagina jamiyat hayotida etakchi ma'naviy-ma'rifiy omilga aylanishi va kutilayotgan muhim vazifalarni bajara olishi mumkin. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari– amal qilishi jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bunda uning mafkura sifatidagi umumiy va xususiy tamoyillarini ko'rsatish mumkin. Milliy istiqlol mafkurasining

umuman mafkura tushunchasiga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, amal qilish tamoyillari bo'lishi tabiiy. Bu borada unga ijtimoiy voqelikning in'ikosi ekani, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichiga mos kelish, hayot hodisalarini aks ettirish, amalga oshiriladigan targ'ibot va tashviqot tizimi sifatida namoyon bo'lish kabi umumiy tamoyillar xosdir. SHu bilan birga, milliy istiqlol mafkurasi **O'zbekistonda ozod, obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratishga** qaratilgan umummilliy hodisa sifatida qo'yidagi bir qator o'ziga xos amal qilish tamoyillariga ham ega:

- mamlakatning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilish;
 - davlatimizning hududiy yaxlitligi va sarhadlari daxlsizligini ta'minlashda yordam berish;
 - qonun ustuvorligini ta'minlash;
 - demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallashiga asoslanish;
 - milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;
 - xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
 - iqtisodiy plyuralizm va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta'minlash;
 - davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligiga tayanish;
 - vijdon erkinligi va fikrlar rang-barangligi muxitini shakllantirish;
 - o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi, jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiyligi jarayonlariga xizmat qilishi.
- Mazkur tamoyillarning barchasi bir-biri bilan cham-barchas aloqada va bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ularning respublikamizda yashovchi barcha millat va elat vakillarining umumiy man-faatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida in-tilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsadmudaolarini o'zida mujassam etishi bilan belgilanadi.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy xususiyatlari – Prezident Islom Karimov tomonvdan ko'rsatib berilgan bo'lib, «Milliy istiqpol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida qisqa va muxtasar tarzda bayon qilingan. Ularning eng asosiy jihati – bu xususiyatlarning umuminsoniy mazmun-mohiyatida to'la-to'kis o'z aksini topgani bilan belgilanadi. SHu ma'noda milliy istiqgol mafkurasi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Binobarin, u qonuniylikka, umume’tirof etilgan talablarga, umumbashariy tamoyillarga va milliy manfaatlarga mos keladi;
 - xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizning chuqur tarixiy va boy ma’naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;
 - adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqimizning ishonch va e’tiqodini aks etgiradi. Bilamizki, bu ulug‘ g‘oyalar istiqyaol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e’tiqodi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi;
 - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xapq farovon-lini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a’zolarini aniq maqsad sari safarbar qiluvchi, ularni bu yo‘lda uyushtiruvchi ma’naviy omil sifatida moxiyatga ega ekanini ifodalaydi;
 - jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagani yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o‘zimizning burchimizni qay darajada anglashimiz, ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizga ko‘p jihatdan bog‘liqdir;
 - millati va dinidan qati nazar, mamlakatimiz-ning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro xurmat tuyg‘usini qaror toptiradi. Bu qoida har bir fuqaro ongiga Vatanning muqaddasligini singdirishga xizmat qiladi;
 - jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillarga rioya qilgan holda ma’rifiy yo‘l bilan singdiriladi.
- Milliy istiqlol mafkurasi yaxlit tizim bo‘lganidan uning barcha xususiyatlari o‘zro aloqadorliqda va uzviy bog‘liqliqsa namoyon bo‘ladi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma’naviy tamoyil-larini ifoda etadigan g‘oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Mafkuralar, ma’no-mohiyatiga ko‘ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta’limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o‘z mafkuralarini yaratishda siyosiy g‘oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari- xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasidan kelib chiqadigan va o‘zining ma’noqamoxiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni to‘ldirib, fuqarolarimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladigan bunyodkor g‘oyalardir. Ushbu g‘oyalarning mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari Prezident Islom Karimov asarlarida o‘z ifodasini topgan. Bular quyidagilardir:

- Vatan ravnaqi;
- yurt tinchligi;
- xalq farovonligi;
- komil inson;
- ijtimoiy hamkorlik;
- millatlararo hamjihatlik;
- diniy bag‘rikenglik.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari ma’rifatli dunyoda e’tirof etilgan umumiy qonun-qoidalar va xalqaro andozalar, umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarning ustuvorligi, inson xuquklari va erkinliklariga og‘ishmay amal qilish, demokratiya va gumanizm kabi tamoyillarning talablariga to‘la-to‘kis mos keladi. Milliy istiklol mafkurasining bosh va asosiy g‘oyalari turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruxdar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen, ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir g‘oya mutlaqlashtirilmaydi yoki mavjud hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari o‘z mazmun moxdiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiya-lar, guruh va qatlamlarning – butun xalqning umumiy manfaatlarini ifodalaydi. O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g‘oya xalqning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo‘lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Milliy istiqlol mafkurasining bosh goyasida **ozodlik tushunchasi** ustuvor va etakchi o‘rinda, Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlar, amaliy faoliyat va yorug‘ kelajak asosi ekanligidan dalolat beradi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari xalqning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasidan kelib chiqadi va o‘zining ma’no-moxiyati, falsafasi, jozibasi bilan bosh g‘oyani millat qalbi va ongiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkrasining bosh g‘oyasi– mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Ular «Milliy istiqpol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagicha ta’riflangan: «O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g‘oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo‘lgan Mustaqillik, Ozodlik, Vatan obodligi shaxsning erkinligi va farovon hayot tushunchalari, yuksak qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Milliy istiqlol g‘oyasining bosh g‘oyasida ozodlik so‘zining ustuvor va etakchi o‘rinda turishi mustaqillik barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug‘ kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi. Milliy istiqlol g‘oyasining bosh g‘oyasi uzviy ravishda uning ma’no mohiyatini to‘ldiradigan, xalqimiz, jamiyatimiz hayotida haqiqiy bayroq bo‘lishiga xizmat qiladigan, jamiyatimizning bugungi taqdiri va kelajagiga bogliq bo‘lgan tub manfaatlarimizni aks ettiradigan bir qancha g‘oyalarni taqozo qiladi». «Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida qisqa va muxtasar tarzda bayon etilgan:

- bu mafkura oila va fuqaroni munosib turmush darajasini ta’minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi;
- har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mexdat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, o‘z manfaatini xalq va Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘rishga da’vat etadi;
- mulkdor odamlar jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma’naviy fazilatlar bilan ham ajralib turishi zarurligi, shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o‘z qo‘lida, degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi;
- «Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligi» g‘oyasini ilgari suradi.

Ma’lumki, mafkuraning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- odamlarni muayyan g‘oyaga ishonitirish;
- shu g‘oya atrofida uyushtirish;
- goyani amalga oshirish uchun safarbar etish;
- kishilarni ma’naviy-ruhiy jihatdan rag‘batlantirish;
- g‘oyaviy tarbiyalash;

- g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo‘lish.

Ana shu umumiy jihatlardan tashqari, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan o‘ziga xos maqsad va vazifalari ham bor. Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta’kidlagani kabi, **«Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an‘analarimizga munosib bo‘lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish–milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir»**. Ushbu maqsad bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda namoyon bo‘ladigan bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Bu vazifalarning eng asosiylaridan biri mustaqil va erkin tafakkurni shakllantirishdir. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: «Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o‘rganishi, o‘ziga ishonchi ortib borishidir. Chunki tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqlardan, qulliqsan qutilmasa, inson to‘la ozod bo‘lmaydi». Milliy istiqlol mafkurasining yana bir vazifasi jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit yaratishdan iborat. Bu esa, o‘z navbatida, hurfikrli, mutelik va jura’atsizlikdan xoli insonni tarbiyalash vazifasi bilan bog‘liq. Faqat hurfikrli, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insongina mutelik va jur’atsizlikdan xoli bo‘ladi. Ana shunday insongina ozod va obod Vatanni barpo etadi, erkin va farovon hayotni yarata oladi. Mustakillik yillarida to‘plangan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida **inson, jamiyat g‘oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko‘rsatdi**. Zotan, odamzot o‘zining ruhi va shuuridagi ko‘pdan-ko‘p savollarga javob bo‘ladigan, uni amaliy faoliyatga undab turadigan hayotbaxsh g‘oyaga xamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bqshlik bo‘lmagann kabi inson kalbi va ongida ham bqshlik bo‘lmaydi. Jamiyat hayotida sog‘lom g‘oya usguvor bo‘lib turmasa odamlarning kalbi va ongini yot, zararli g‘oyalar egallab, xalqning turmush tarzini izdai chiqaradn. Xuddi dunyoning boyliti turli kuchlar qrtasida talash bo‘lganidek, insonlarning qalbi va ongini egallab. ularni o‘z qo‘lidaga kuroлга aylaitirish maksadi ham jaxonda xar xil tajovuzkor oqim va ta’limotlar o‘zaro kurashga undashi. ayniksa, bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yurtboshimiz bugungi tarakqiyotning mana shunday o'zigaxos qonuniyatlarini teran xis etib, buyuk maksadlar bilan yashaetgan halkimizning intilishlariga mos keladigai milliy istiqlol g'oyasi to'g'risidaga ta'limotni yaratdi. Bu ta'limot Prezidentimiz asarlarida to'la-to'kis asoslab berilgan. Ana shu asarlar asosida 2000 nilda «Milliy istiqlol goyaei: asosiy tushuncha va tamoyillar» nomli maxsus risola chop etildi. Hozirgi davrda milliy nstnklol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini yurtdoshlarimiz. ayiiqsa, yoshlarga tushuntirish, targ'ib etnsh, undash bilim-qarashlar asosida yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muxim. SHuning uchup Prezidentimiz 2001 ynl 18 yanvarla «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani mamlakatimiz ta'lim tizimiga yangi fan sifatida joriy etish to'g'risida farmoyish chiqardi. Bugungn kunda ta'lim muassasalarida keng o'rganilayotgan fan shu tariqa yuzaga keldi. SHu o'rnda quyidagini yodda tutish lozim: Milliy istiqlol g'oyasi bilan «Maplny nstlklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanninng maqsadlari bir-biridan muayyan darajada fark kilali. CHunki ularnnng biriichisi taraqqiyotimizning g'oyaviy asoslari va mafkuraviy ta'lnmotini o'zida mujassam etgan nazariyani, ikkiichisi esa o'quv fanini bildiradi. Preeidentimiz Islom Karimov milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining maqsadi xaqida fikr yuritib, uni shunday ta'riflagan: «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchui doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosn, milliy kadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish yuksak fazilatli va komil iisonlarni tarbiyaash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylkni hayot maqsadiga aylanshrish millny istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir»¹ SHu bilan birga, milliy istiqlol g'oyasining ijtimoiy vazifasi bilan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining vazifasi ham bir-biridan farq qiladi. Bu farqlar g'oyaning inson va jamiyat hayotidagi funksiyasi bilan fanning ijtimoiy tafakkur va ta'lim-tarbiya tizimidagi funksiyasi o'rtasidagi o'ziga xoslikdan kelib chiqadi. Yurtboshimiz milliy istiqlol g'oyasining vazifasi hakida to'xtalib shunday degan edi: «Men milliy istiqlol g'oyasi bugun tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, kanday buyuk ajdodlarimiz merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni xis etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik kadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari

bilan oziqlantirib, yosh o'sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman»Bu orzu-umidlar va intilishlarni amalga oshirish ushbufanni o'qitishda bir qator talablarga ahamiyat berishni zaruratga aylantiradi.

2. G'oya tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati.

Uyushtirish, safarbar etish, tarbiya va yot va zararli g'oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish, ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish yo'lida keng jamoatchilikda millatparvarlik, o'zligini anglash va qadrlash, fidoiylilik, komil insonga xos fazilatlarni shakllantirish. Milliy istiqlol g'oyasi ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya, asriy orzu intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettirishi. G'oya tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati Inson va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar alohida o'rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro'y berishi jamiyatda qanday g'oyalar hukmronlik qilishi, ular qanday kuchlarni harakatga keltirishi kimlarning ya'ni qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

G'oya tushunchasining mohiyati nimadan iborat?

Inson o'zining aql – zakovati, imyon – e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzoatlardan farq qiladi. Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Demak, **birinchidan**, g'oya inson tafakkurining mahsulidir.

Ikkinchidan, g'oya oldin mavjud bo'lmagan o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «g'oya», «mafkura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi idea so'zidan olingan, ideologiya uchun o'zak bo'lib hisoblanadi va tushuncha yohud fikr

ma'nosini anglatadi. Ideologiya (idea- g'oya. Tushuncha, iogos – ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi.

- g'oyalarning mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha hisoblanadi;

- muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga etish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

Sog'lom va nosog'lom, ezgu hamda yovuz, bunyodkor yoki buzg'unchi g'oyalar bo'lishi mumkin. G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, keng jamoatchilikning maqsadlarini ifoda etadi. Ularning ishonchi va e'tiqodiga aylanib, e'tirof etilganligini bildiradi, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi.

G'oyaning ijtimoiy mohiyati. Har qanday g'oya ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi. Ma'lum bir muddatdan keyin esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yyayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi. Muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib qiladi. G'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga ketiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir. Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

- Ilmiy g'oyalar; falsafiy g'oyalar; diniy g'oyalar; badiiy g'oyalar; ijtimoiy – siyosiy g'oyalar; milliy g'oyalar; umuminsoniy g'oyalar v.h.

G'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovvuzkor bo'lishi ham mumkin.

Ezgu g'oya - inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad-muddao sari etaklaydigan fikrlardir.

Mafkura tushunchasiva uning mohiyati Mafkura tushunchasi (arabcha «mafkura» nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) degan ma'noni

anglatadi. Mafkura tushunchasini ta'riflashda falsafiy adabiyotlar va lug'atlarda bir qancha fikrlar beriladi. Mafkura tushunchasiga turli davrlarda faylasuf olimlar tomonidan berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatidan har xil. Mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuidir, - deb ta'rif beriladi. Ularning barchasida jamiyatdagi muayyan siyosiy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar majmui sifatida asoslab beriladi. Demak, mafkura - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlarning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish prinsiplarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalangan kuch va qatlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlarning millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi¹. «G'oya» va «mafkura» tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsada, ularni aynanlashtirmaslik kerak. Nima sababdan? Birinchidan, mafkura g'oyaga nisbatan mazmunan kengroq tushunchadir. Ikkinchidan, har qanday mafkurada ijtimoiy voqelikni saqlab qolish yoki o'zgartirishga qaratilganlik, ya'ni maqsadlar botiniy emas, balki zohiriy tarkibda mavjud bo'lishini va mafkuraning o'zagini tashkil etishini ta'kidlash, joiz. Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya faqat ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyatini, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishi mumkin.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasini jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi. Prezident Islom Karimov jamiyat mafkurasiga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq - ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat

¹қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент. «Янги аср авлоди». 2001. 31-б.

mafkurasi deb bilaman»²Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni- xalq, millatni- millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq- ravshan charog'on etadigan mayoqdir. Insoniyat tarixida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar, o'z g'oyalari va ta'limotlari orqali, maqsad va niyatlariga etishmoq uchun intilgan. Mafkuralar mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Turli-tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanishi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanishi mumkin.

Mafkuraning falsafiy ildizlari deganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir.

Bu haqda Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «dunyoviylik», ayrim aqidaparast kimsalarning da'volaridan farqli o'laroq, aslo dahriylik emas. Biz bunday noto'g'ri va g'arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz»¹. Darhaqiqat, yaqin o'tmishimizda - dahriylik siyosati hukmronlik qilgan, diniy qarashlar va qoidalar xurofot deb atalgan. Diniy aqidaparastlar esa dunyoviy ilmlarni dahriylik, xudosizlik deb insonni e'tiqodidan ayirishga urindi.

Mafkuraning diniy ildizlari- inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlariga borib taqalishi tushuniladi. YA'ni, ko'pgina mafkuralarda Avesto, Veda va Upanishadlar, Injil va qur'on kabi kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz. Inson va jamiyat hayotining muayyan fikrlar, g'oyalar, mafkuralar bilan bog'liqligi Insoniyat tarixidan ma'lumki, er yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', qabila, jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ilgan. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «CHunki, mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi». Darhaqiqat, barcha davrlarda har bir

² Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни - миллат қилишга хизмат этсин. - Т.: «Ўзбекистон», 1998, 11- бет

¹ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Т., «Ўзбекистон», 2000, 26 - бет.

davlat, xalq, jamiyatning o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi bo'lgan. Chunki jamiyatning, xalqning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi uni amalga oshirishda jamiyat ahlini birlashtiradigan, safarbarlikka undaydigan g'oyasi va mafkurasi bo'lmasa u muqarrar ravishda halokatga mahkum bo'ladi.

G'oya, mafkura jamiyatning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi bo'lib, busiz jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. «Maqsad degani,- deb yozgan edi Prezident I.A.Karimov, - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyligi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni-millat qila bilsin, qo'limizda engilmas bir kuchga aylansin»¹.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, o'zbek tom ma'noda bunyodkordir, do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, erkinlashtirish jarayonlari bunyodkorlik ishlariga yorqinmisol bo'ladi.

Mafkura yakkahokimligi tushunchasi va uning mohiyati Alohida mafkura yakkahokimligining mohiyati shundaki, bunda biron-bir mafkuraviy tizim yagona ilmiy jihatdan asoslangan eng adolatli, jamiyatdagi muayyan qatlam manfaatlarini ifoda etuvchi mafkura deb e'lon qilinadi. O'zining mohiyati yoki biron bir jihati bilan undan farq qiluvchi g'oyalar, qarashlar, mafkuralar yot va dushman mafkuralar sifatida e'tirof etiladi.

G'oya va mafkurani mutlaqlashtirishning g'ayriinsoniyligi Bu siyosat harbiy-hududiy va mafkuraviy bosqinchilik qilishga, o'zining mustabidchilik tartiblarini keng miqyosida qaror toptirishga qaratiladi. Lekin, tarixiy haqiqat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozalari va ularning loyihalari asosida yaratilgan, demokratiyaga qarshi tuzumlarning pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrar. SHu sababli yakkahokimlikka intilgan, mutlaq haqiqatni e'tirof etishga da'vo qiladigan mafkuraning istiqboli yo'q. Chunki, u yakkahokimlik o'rnatish barobarida o'zini boyitib boradigan manba - fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligidan uzilib qoladi. Muayyan guruh yoki partiya

¹ Каримов И.А. «Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлатлари. -Т.: «Ўзбекистон», 1997, 51- бет

g'oyalari hukmron mafkuraga aylansa, hurfiylik, vijdon erkinligi va qarashlar xilma-xilligi cheklanadi. Mutlaq haqiqatga egalik da'vosi, mustabidlik prinsiplarini kuchaytiradi. 1991 yilda sobiq Ittifoq tarqalib ketishi bilan uzil-kesil inqirozga uchradi. Buning sabablari nimalardan iborat?

Birinchidan, u o'zini insoniyat tafakkuri erishgan eng yuksak cho'qqi, mutlaq haqiqat ifodasi deb hisoblab, boshqa mafkuralarni tan olmas, ular bizga yot degan aqida asosida murosasizlarcha ish tutar edi;

Ikkinchidan, bu mafkura targ'ibotchilari zo'ravonlik prinsipi «majbur qilamiz» qabilida ish tutar, ushbu g'oyalar hamma joyda, hamma vaqt hech istisno va to'xtovsiz targ'ib qilinar, xalqning erkin yashashi va fikr yuritishiga yo'l qo'yilmas edi. Kimki bu g'oyaga qarshi chiqsa, shafqatsiz jazolanar, butun davlat mexanizmi ana shu jazoni turli shakllarda amalga oshirishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, bu mafkura nomigagina ijtimoiy guruhlar mafkurasi edi. Aslida sobiq Ittifoq davrida ziyolilar, dehqonlar, xizmatchilar, qolaversa, «etakchi sinf» bo'lgan ishchilarning orasida ham mafkuradan norozi bo'lganlar bor edi. Lekin metin mafkuraviy devor ortidan ularning ovozi chiqmas edi;

To'rtinchidan, bu mafkura hech kimga vijdon erkinligi, o'z fikrini ochiq bayon etish, jumladan, xorij fuqarolari bilan xolisona muloqatda bo'lishga ham yo'l qo'ymas edi. Bordi-yu kimdir shunga jur'at etsa, «xalq dushmani», «burjuaziya malayi»ga aylanar edi;

Beshinchidan, u milliylikdan butunlay xoli edi. Unda mavhum baynalmilallik zo'r berib kuylanardi. Kimki milliy qadriyatlar to'g'risida gap ochsa, darhol «millatchi»ga chiqarib qo'yilardi. Milliy tafakkurga ega bo'lgan shaxs, mutaxassis, ziyoli, olim, boshqalar «qoloq», «shubhali kishi» hisolanardi;

Oltinchidan, bu davrda milliy tarix, xususan, O'zbekiston tarixi mutlaqo tan olinmas edi. Nari borsa, ular ko'pincha umumiy tarzda qayd etilardi, xolos;

Ettinchidan, xalqlarning diniga, diniy merosiga, diniy qadriyatlariga nisbatan mutlaqo noto'g'ri munosabatda bo'lishar edi. Jumladan, xalqimizning ulug' siymolari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Mahmud Zamahshariy, Imom Moturidiy, So'fi Olloyor kabi allomalarning boy ilmiy merosini o'rganish, ulardan foydalanish taqiqlangan edi;

Yagona mafkura hukmronligining jamiyat hayotida zararli oqibatlari:

Shaxs erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga murosasizlik, millatning o'zligini inkor etish, milliy va diniy qadriyatlarni rad etish, milliylikni cheklash, mutlaq haqiqatni bilishlikka da'vo qilish, zo'ravonlikka asoslanganligi, mutelik, boqimandalik, loqaydlik, milliy mahdudlik, siyosiy sohada tashabbussizlik, o'zga g'oyalarga yotqarash, jamiyatning ma'naviy inqirozi, tarixiy xotirasizlik, ona tiliga pisandsizlik bilan qarashda yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo'ya hatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishi uchun yo'l qo'yilgan kamchilik va e'tiborsizlik tufayli sodir bo'lmoqda. Xo'sh, aslida g'oyaviy bo'shliq nima? G'oyaviy bo'shliq eski mustabid tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'z mavqeini yo'qotgach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy tizimning hali to'liq shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli xil mafkuralar ushbu hududga o'z ta'sir doirasini o'tkazishga urinadi. 1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston hududida ham namoyon bo'ldi. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

- Iukmron, kommunistik mafkura tanazzulga yuz tutdi va o'rni bo'shab qoldi;
- O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan, mustaqillik mafkurasi g'oyalari mamlakatimiz fuqarolarining ongi va dunyoqarashida ma'lum darajada aks eta boshlagan bo'lsada ammo u hali odamlarning mustaqil dunyoqarashiga, mustahkam ishonch va e'tiqodiga aylanmagan edi; **o'tish davrida** ijtimoiy hayotning turli sohalarida fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga jo'shqin ifoda bo'ldi. Milliy madaniy meros va qadriyatlarga, milliy istiqlol g'oyasiga bo'lgan ishonch va e'tiqodni e'tirof etilishi vaziyatda muhim burilish yasadi. O'tish davrida, yangicha qarashlar odamlarning mustahkam e'tiqodiga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta'sirlarning yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli ekanini hamma ham farqlay ololmadi. O'zbekistondagi mafkura maydoniga begona, xalqimizning orzu-intilishlariga mutlaqo yot g'oyalarning hujumi ana shu bilan bog'liq geosiyosiy, mafkuraviy maqsadlar bilan ham izohlanadi. Masalan, mustaqil mamlakatimiz tinch-osoyishta yashayotgan bir paytda Afg'oniston va boshqa yaqin hududlaridagi beqaror vaziyatdan foydalanib, ularning hududiga in qurib olgan ba'zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi to'dalar o'z jinoyatkorona maqsadlarini amalga oshirishga,

Markaziy Osiyo mintaqasini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi. Inson va jamiyat hayotida gʻoya va mafkuralarning oʻrni.

3. Maʼfuraviy plyuralizm

Maʼfuraviy plyuralizm (lot. Pluralis- ilma-xillik, rang-baranglik) - ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi gʻoyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Inson va jamiyat hayotida gʻoyalar va maʼfuralar xilma-xilligining namoyon boʻlishi ijtimoiy-maʼnaviy ehtiyoj ifodasidir.

Bunyodkor gʻoyalar va maʼfuralarning jamiyat hayotidagi ijobiy taʼsiri

Bunyodkor gʻoya - insonni ulugʻlaydigan, uning kuch-gʻayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, oʻzida taraqqiyot, maʼrifat, doʻstlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his tuygʻularning urugʻini mujassam etadigan gʻoyadir.

Vayronkor, yot gʻoya va maʼfuralarning jamiyat hayotiga salbiy taʼsiri

Vayronkor gʻoyalar - jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab boʻladi, gʻayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi. Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkorlik gʻoyalari bilan yovuzlik va buzgʻunchilik gʻoyalari oʻrtasida hamisha kurash boʻlganligi tarixdan maʼlum. Yovuzlik gʻoyalari tarixda hamisha salbiy va yovuz kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi. Salbiy yurishlarga turtki boʻlgan gʻoyalar, irqchilik, fashizm, terrorizm, mustamlakachilikni targʻib qiluvchi gʻoyalar bunga misol boʻladi. Insoniyatning, jumladan, Oʻzbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zoʻravonlik, kulfat urugʻlarini sochish va qon toʻkilishiga sabab boʻlgan buzgʻunchi gʻoyalar va maʼfuralarning halokatli taʼsiri bilan bogʻliq voqealar koʻp boʻlgan. Bu gʻoyalar oʻzlarida mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda amalga oshgan. Jumladan, bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid gʻoya va maʼfuraning boshqa shakli – fashizm paydo boʻldi. Fashizm (ital Fasismo bogʻlam, birlashma) - Gʻarb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi ogʻir iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy buxronlar davrida vujudga kelgan oʻta tajovuzkor va vayronkor gʻoyalar asosida shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot. U jamiyatda oʻta reaksiya va tajovuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdan-ochiq terroristik diktaturaga, zoʻravonlik gʻoyasiga tayanadi. Fashizmning - muhim xususiyati ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik boʻlib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari, ilgʻor fikrli aʼzolariga qarshi kuch ishlatishning eng ogʻir va zararli shakllarini qoʻllash jarayonida yaqqol namoyon boʻladi. Fashizm oʻz kirdikorlarini yashirish

va xaspo'shlash uchun siyosiy tilyog'lamalik, yolg'on va bo'htonlardan ustalik bilan foydalanadi. Fashizmning tashqi siyosati bosqinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30-yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va SHarqiy Evropaning boshqa bir qancha mamlakatlarida o'rnatilgan edi. Fashistlar Germaniyasi militaristik Yaponiya bilan ittifoq tuzib 1939-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushini boshlagan. Bu urush insoniyatga mislsiz kulfat va falokatlar keltirdi, 50 milliondan ortiq odam halok bo'ldi, yuzlab shahar va qishloqlar vayron qilindi. o'tgan asrning 70-yillariga kelib Portugaliya, Gretsiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar barbod bo'ldi. Ammo, bugungi kunda ham ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va b.) fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoqda. YAngi fashizm g'oyasi bugungi kunda insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamog'i lozim. Bolshevizm mafkurasi bo'lgan kommunistik ta'limot xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalmilalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy-etnik sofligi»ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etdi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada «insoniyat nasli»ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi. Irqchilik - odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqlarning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqlarni «quyi» irqlar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra farqlanib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. U buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, ta'lonchilik amaliyoti bilan yaqindan bog'liqdir. Irqchilik ta'limoti bilan qurollangan fashistlar Germaniyasi «oriylar irqi» hukmronligini o'rnatish maqsadida jahon urushini boshlagani bunga yaqqol misoldir. Hozir ham

reaksion mafkuraga asoslangan kayfiyatdagi ayrim guruhlar, ularning nazariyotchilari irqchilik g'oyalarini targ'ib etib, «qoloq» xalqlarning go'yo mustaqil rivojlanishga ruhiy tayyor emasliklarini da'vo qilmoqdalar. Dunyoning turli mintaqalaridagi bunday qarashlar va harakatlarni xalqlar ozodligini bo'g'ishga ular ustidan hukmronlik o'rnatishga intilish deb tushunish mumkin. Sobiq ittifoq parchalanib ketganidan so'ng ba'zi imperiyacha fikrlovchi ayrim siyosatdonlar va ularning nazariyotchilari qarashlarida ham irqchilik kayfiyatlari paydo bo'lganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlarning asossiz ekanini hayot ko'rsatmoqda. Ma'lumki, irqlar odamlarning ikkilamchi tashqi nasli xususiyatlari (badanining rangi yuz-bosh tuzilishi kabi belgilari) bir xil bo'lgan, tarixiy darda shakllangan guruhlardir. Dunyoda evropalik, mo'g'ul va negrlilik belgilariga qarab ajratiladigan uch asosiy irq bor. Insonning jismoniy tuzilish asoslari (suyak mushak miya va tananing boshqa a'zolari) barcha irqqa mansub kishilarda bir xildir. Butun insoniyat yagona biologik turga - «Homo sapiens» mansubdir. Tarixiy taraqqiyot davomida irqlarning aralashuvi irqiy belgilarning o'zgarishi sodir bo'lib kelgan va u hozir ham davom etmoqda. Barcha irqlar madaniy taraqqiyotga birdek qobiliyatlidir. Irqchilik insoniyatga qarshi g'oyadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha irqlar va millatlarning teng huquqliligi belgilab qo'yilgan. Bu qoida jahon hamjamiyatining xalqaro huquq me'yorlariga javob beradi. Yana bir eng yovuz g'oyalardan biri – terrorizmdir. Bugungi kunda insoniyatga katta tahdid solmoqda.

TERRORIZM (lot. Terror – qo'rquv, dahshat) - ma'lum yovuz maqsad yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, g'alamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi- bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot. Xususan XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, O'rta Osiyo

xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilma-xil ko'rinishda olib bordilar. Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan: «O'tgan mustaqil rivojlanish yillarida davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti-harakatlarda namoyon bo'lmoqda»¹.

Diniy aqidaparastlik esa - siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat. Aqidaparastlar diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan, o'sha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'l-yo'riqlarning qa'tiy hamda og'ishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa diniy oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan islohot shaklini shart qilib qo'yadilar.

Diniy ekstremizm - ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi. Boshqacharoq aytganda, diniy ekstremizm - muayyan diniy yo'nalish vatashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasi. Bu fikrning isboti sifatida «Musulmon birodarlari» va undan ajralib chiqqan ko'plab diniy ekstremistik ruhdagi guruh va tashkilotlar tayanadigan asosiy g'oyalarni eslab o'tishimiz mumkin.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar:

- Dindan foydalanib dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzlar va maqsadlarni amalga oshirish uchun intilish;
- Dinni niqob qilib, turli siyosiy mojarolar, ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinish;
- Inson, millatlarining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini emas, balki dinning yashashga bo'lgan huquqini e'tirof etish;

¹ Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлатлари. -Т.: «Ўзбекистон», 1997, 51- бет

- Dinni dunyoqarash, tafakkurning yagona vositasi deb hisoblash;
- O‘z-o‘zidan ravshanki, bu hodisalar O‘zbekistoning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta‘minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda butunlay zararli g‘oyalardir.

Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish zarurligi Bugungi kunda qurol-yarog‘ kuchi bilan zo‘ravonlik qilish emas xalqlarni, mamlakatlarni, dunyoni zabt etish uchun juda katta mafkuraviy qudratga, g‘oyaviy asosga ega bo‘lish kerakligini hayot ko‘rsatmoqda. XX asr sivilizatsiyasi dunyoni aql-idrok bilan zabt etish prinsipini yuzaga keltirib chiqardi. SHuning uchun ham bugun davlatlar qudrati, mamlakatlar salohiyati yadroviy poligonlar bilan emas, g‘oyaviy, mafkuraviy poligonlardagi salohiyati bilan o‘lchanadi. Bu haqida Prezident Islom Karimov: «Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o‘z maqsadlariga erishish uchun, avvalo, zabt etmoqchi, o‘z ta’sir doirasiga olmoqchi bo‘lgan mamlakatlarning aholisi ongini o‘ziga qaram qilishga intiladi»², - deb ta’kidlaydi. Milliy istiqlol g‘oyasiga ishonch va e’tiqodi bo‘lgan har bir kishi nosog‘lom fikrga – sog‘lom ezgu fikr bilan javob beradi. o‘zining fikriga ega bo‘ladi. o‘zining erkin fikriga ega bo‘lmasa, javob bera olmaydi. Xuddi shunday yovuz g‘oyaga - ezgu g‘oya bilan, jaholatga ma‘rifat bilan javob beradi. Bugungi mafkura sohasida bo‘ladigan turli xil kurashlarda ana shu yo‘l bilan g‘olib bo‘lib, milliy o‘zlikni saqlab qolish mumkin. XX asr oxiri o‘zbek xalqi tarixida olamshumul ahamiyatga molik davr bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirdi, asriy orzusi ushalgan xalq o‘z taqdirini o‘z qo‘li bilan yaratadigan bo‘ldi. Kelajagi buyuk davlatni qurish va mustahkamlash uchun jamiyatni harakatga keltiruvchi komil insonlarni etishtirish talab etiladi. Buning uchun jamiyatning har bir a‘zosi dastavval, o‘zligini anglashi kerak. Prezidentimiz I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” deb atalgan risolasida, - “o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarixni yaxshi bilmasdan turib yuksak mavqega erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas. Ma’naviyatini tiklashi, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, u irodali insondir... Jamiyatning har bir a‘zosi o‘zo‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar

² Каримов И.А. Миллий истиелол мафкураси- халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Т.: «Ўзбекистон», 2000, 7 бет.

ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. Irodasini mustahkamlaydi"- deb ta'kidlaydilar. Respublikamizda keyingi vaqtda, diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi milliy qadriyatlarimizga yot, zararli oqimlarning suqilib kirib, ayrim yoshlarimizning o'zligini yo'qotib qo'ygan manqurtlarga, har xil manfur guruhlarining malayiga aylanib qolishi Prezidentimiz Islom Karimovning yuqoridagi gaplari naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor isbotladi. 1998 yilda respublikamizning bir guruh faylasuf, tarixchi, siyosatshunos, sotsiolog, psixolog, pedagog va adabiyotshunos olimlar bilan uchrashuvida yurboshimiz "... pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon Hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos - bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart" - deb ta'kidladilar. Darhaqiqat, xalqimizning fidoiy, sog'lom fikrlovchi, bilimdon ziyolilari ommaga milliy mafkurani tushuntirishi va singdirishi lozim. I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolasida yana shunday deb yozadilar : "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz Haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur". Shuning uchun Prezidentimizning yuqorida eslatib o'tilgan risolasida tarixni O'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish masalasini ilgari surdi.

Shuning uchun ham O'zbekiston tarixi fanibarcha oliy va o'rtamaksusta'limo'quv yurtlarida, litseylar vakasb-Hunarkollejlari, umumta'lim maktablarida o'qitilmoqda, bitiruvchilaresayakuniy Davlat attestatsiyalarini topshirmoqdalar. Prezidentimiz bu ishga shaxsan o'zlari, bosh-qosh bo'lmoqdalar. U kishining tarixchi olimlar bilan uchrashuvlari, Vazirlar Mahkamasining bu masalaga bag'ishlangan bir qator qarorlari va farmoyishlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir. 1998 yil sentyabr g'oyida Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi respublika oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari uchun 15 kunlik ilmiy seminar tashkil qildi. Seminarda O'zbekiston tarixi fanining dolzarb muammolari va yangi dasturi muhokama etildi. 1998-1999 o'quv yilidan boshlab oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis yo'nalishlarida O'zbekiston tarixini muammoli ma'ruzalar tarzida o'rganish yo'lga qo'yildi. O'zbek xalqining ezgu orzusi ro'yobga chiqib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Mustaqillik tufayli uning boy madaniy o'tmishidan saboq olish, Vatan tarixini chuqurroq va izchil tadqiq etish va qimmatli xulosalar chiqarish alohida

ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning "...tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, O'z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo'lmaydi", -- deganlari ayni haqiqatdir.

O'zbekiston tarixi fanining predmeti O'zbekistonning uzoq o'tmishdan shu kunlarga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyoti jarayonidir. O'zbekiston tarixi fani dunyoda eng qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining bir necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyotini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandir. Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda yashab kelayotgan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. O'zbek xalqi Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar qatorida doimo o'rgan, hurlik, ozodlik va mustaqillik uchun mustamlakachilar va yot kelgindilarga qarshi kurash olib borgan va shu jihatdan u o'zining chuqur ildiz otgan an'alariga egadir. Oliy o'quv yurtini bitiruvchi bakalavr bilishi kerak bo'lgan umumiy bilim doirasi O'zbekiston tarixi fani oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

Birinchidan, Vatan tarixini o'qishvao'rganish jarayonida yoshlarda tarixiy bilimlar, ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanmog'i lozim. Chunki tarixiy voqea va hodisalarni bilmasdan, ular haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lmasdan turib g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas; Ikkinchidan, Vatan tarixini yoritish, o'qitish vao'rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yo'nalish bo'lishi lozim;

Uchinchidan, Vatan tarixining har bir satri, har bir varag'i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi va milliy g'oya va milliy mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi darkor; To'rtinchidan, Vatan tarixining boshidan oxiriga qadar singib ketgan asosiy g'oya - otashin vatanparvarlik, baynalminalchilik, insonparvarlik kabi ulug' fazilatlarga qaratilmog'i kerak. Beshinchidan, Vatan tarixi fani mustaqil respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy qadriyatlarining yanada mustahkamlanishi va ravnaq topishiga xizmat qilishi, davr va zamon bilan ham nafas bo'lmog'i ayni muddaodir. I.A.Karimov O'zining Vatan tarixiga qarashlarini izchilik bilan rivojlantirib, quyidagilarni yozgan: "Bugungi zamon bahosini berish uchun avvalambor, kechagi kunga - o'tmishga nisbatan qanday munosabatda ekanimizga

baho berish kerak”. I.A.Karimovning “O’zbekiston - kelajagi buyuk davlat” kitobidagi bir fikrga diqqat qilish joizdir. Hech mubolag’asiz aytish mumkinki, quyidagi so’zlar tarixchi - tadqiqotchilarimiz izlanishlari uchun metodologik asos bo’la oladi: “Biz yangi hayot uchun bel bog’ladik, biroq o’tmishga malomat toshlarini otmadik. Halqimizning o’tmishga tosh otish - gunohi azim, degan asl aqidasini yodda tutdik... O’tmishni taftish qilish yoki uni inkor etish - o’z ildizimizni o’zimiz kesishimiz bilan barobar ekanligini yaxshi angladik...” Bu gaplarni tarixchilarimiz, ba’zi ijodiy ziyolilarimiz ham o’qib, ham uqib olishlari kerak, chunki ilgari ular bunga amal qilmadilar va hozir ham to’la amal qilayotirlar deb bo’lmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz 1998 yilning iyun oyi oxirlarida bir guruh etakchi tarixchilar hamda, ziyolilarning ayrim vakillari bilan suhbat o’tkazdilar. Bu suhbat “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” degan sarlavha bilan “Muloqot” jurnalining 5-sonida va alohida risola sifatida nashr qilindi. Prezidentimiz suhbatda Vatan tarixining bir qator dolzarb muammolari haqida so’z yuritdilar. Bular asosan quyidagicha:

1. Vatan tarixini yaratishning yagona kontsepsiyasi yo’q. Obro’li tarixchi olim fikri ilmiy hukm bo’lib qolmoqda. Munozara, turli fikrlilik yo’q.
2. Bugun xalqning xolis tarixi yaratilmagan, bor qo’llanmalar talabga javob bermaydi.
3. O’zbek davlatchiligining rivojlanish bosqichlari konkret ko’rsatilmagan. O’zbek millatining shakllanish tarixini, davlatchiligimizning paydo bo’lishi asoslarini ko’chmanchi xalqlarga bog’lashga intilish kuchli.
4. O’zbek davlatchiligi asosi tubjoy xalqlardan, masalan, Xorazmdan boshlanganligi, bunga “Avesto” guvoh ekanligi baralla aytilmadi.
5. Tezda jiddiy tadqiqotlarni tuzish kerak, bu ma’naviyatimiz uchun ham, siyosat uchun ham kerak, chunki u tarix ma’naviyatni shakllantirishga, siyosatga xizmat qiladi, yangi, xolisona yozilgan tarixsiz siyosatda xatolarga yo’l qo’yish mumkin. Prezidentimiz, avvalo, yangi Vatan tarixini yaratish ishi orqaga surilib kelinayotganligidan qoniqmaganliklarini bildirdilar, olib borilayotgan tadqiqot ishlari talabga javob bermasligini aytdilar. Bunga asosiy sabab Vatan tarixini yoritishning yagona kontsepsiyasi yo’qligi dedilar.

Komil insonni tarbiyalashda Vatan tarixining roliga Prezidentimiz alohida urg’u beradilar. “O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”, - deb yozadi Prezidentimiz “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” risolasida. “Ma’naviyatni tiklash,

tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson- irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir". Yana "Inson uchun tarixdan judo bo'lish-hayotdan judo bo'lish demakdir"

Xulosa qilib shunday deydilar: "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz Haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur". Bu vazifalarni bajarish uchun nima qilish kerak. Vatan tarixi fanining vazifalarini Prezidentimiz lo'nda qilib ko'rsatdilar. "Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-sham oyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat deb, tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirish berish kerak. Fan jamiyat va taraqqiyotni olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim". Tarixni bilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur deb ko'rsatadi

I. Karimov. Tarixni o'rganishning muhim nazariy-metodologik asoslaribor. Bulardan biri dialektik metoddir. Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishi, uzluksiz Harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Mamlakatimiz tarixini O'rganishda milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini ta'hlil qilishga, yoritishga tsivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, eozozlash nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan ma'naviy madaniyatini, axloqi, mezonlarini ikkiga - ekspluatatorlik madaniyati va axloqi ham da ekspluatatsiya madaniyati va aHloqqa bo'lish va birinchisini qoralashdan iborat lenincha yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatadi. Ma'naviy merosga bunday yondoshuv ma'naviy qashshoqlashuvga, milliy qadriyatlarning, urf-odatlarining oyoq osti qilinishiga, Ko'pgina olimlar, ma'rifatparvar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak. Tarixni o'rganishda yuqoridagi metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar O'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham

foydalaniladi.

Xullas, biz O'zbekiston tarixi fanining Prezidentimiz aytganlaridek "davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini unutishga aslo haqqimiz yo'q". Prezidentimiz "Fidokor" gazetasi muxbiri bilan bo'lgan suhbatlarida komil insonni yaratishda, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda tarix fanining roliga yana bir bor yuqori baho berib Shunday dedilar: "...Milliy mafkurani shakllantirishda eng katta manba - bu xaqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi." O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12 sessiyasida 1993 yil 7 may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruxiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mexr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim shu bilan birga, bu g'oya xalqimizda, o'zining qudrati va ximoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jaxon xamjamiyatidagi mutaraqiy davlatlar orasida teng xuquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish xissini tarbiyalamog'i kerak.

"Tafakkur" jurnalining 1998 yil 2-sonida jurnal bosh muxbirining savollariga Prezident I.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jixatlari yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida xukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik xolaiiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, taqiq qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaxolatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin", - degan xaq fikrni ilgari surdi Islom Karimov.

Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima?

"Maqsad degani - xalqni, mtllalni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruxini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir... Toki bu maqsad xalqni - xalq, millatni - millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin".

I.A. Karimov. "Tafakkur" jurnali. 1998 yil, 2-soni.

I. A. Karimov jamiyat mafkurasini qanday tushunasiz degan savolga quyidagicha javob berdi: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan

va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman".

I. A. Karimov. "Tafakkur" jurnali. 1998 yil, 2-soni.

Milliy mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari va qarashlari yuzaga chiqishi kerak? "Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish, oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda otishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbayi bo'lishi lozim".

I. A. Karimov. "Tafakkur" jurnali. 1998 yil, 2-soni.

Prezident I. A. Karimov suxbatda "Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?" degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy axamiyatga molik fikr-muloxazalarni, vazifalarni ilgari suradi: milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, ular qanday toifalar va guruxlarning intilishlari va umidlaridan, xar qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya - mafkura bo'lishi kerak, milliy mafkuramiz xar qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jaxon xamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib xurmat va izzat qozonishda poydevor va raxnamo bo'lishi darkor; milliy g'oya birinexi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur; beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajakni uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb xis qilish, shu bilan birga, jaxon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa

yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Jamiyat ma'naviyatini yangilash va yanada yuksaltirish bugungi kunda xam mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Yurtboshimiz o'zining "O'zbekiston 21 asrga intilmoqda", "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz" ma'ruzalarida isloxotlarning yangi bosqichida ma'naviyat soxasidagi vazifalarni asoslab berdi.

"Ma'naviyat soxasidagi eng asosiy vazifamiz milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy xayotimizdagi o'rnini va xurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir".

Mustaqillikning dastlabki yillarida eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliq vaziyatida begona g'oyalarning O'zbekistonga xuruji kuchaydi.

Bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?"Buning yo'li - odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini muslaxkanilash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash... Farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur". I. A. Karimov. "Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman". "Fidokor" gazetasi. 2000 yil 8 iyun.

SHunday qilib, Islom Karimov O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo'ldi. Ma'nomazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy xamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'ri kenglikni ta'minlash kabi insonparvar tamoyillarni o'zida uyg'unlashtirgan milliy istiqlol g'oyasi shakllandi. Mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at, maxallalar va mexnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda. Barcha ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanini o'qitish joriy etildi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda.

Bu – tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy bilimlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan Otabobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, ahloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etganbu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi. Chunki, o'zingizga ma'lum, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni rag'batlantirilmay edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. "SSSR tarixi" deb atalgan darslikda O'zbekistonday mamlakatga 3-4 sahifa o'rin berilib, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida noxolis fikrlar ayilgan yoki umuman, lom-mim deyilmasdi. Fandagi bunday soxtakorlik, ko'z bo'yamachilikni bugun eng olis qishloqda yashayotgan fuqaro ham, maktab o'quvchisi ham yaxshi biladi. Endi, mustaqillik tufayli yaqqol namoyon bo'layotgan tarixiy haqiqatni bilishga, o'zligini anglashga chanqoqligining tub sabablari mana shunda, deb o'ylayman. Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga doir risolalar yozishmoqda, tarixiy mavzuda yirik nasriy, nazmiy, sahna asarlari yartilmoqda. Ommaviy axborot vositalari ma'naviy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilayotgani, suhbatlar, muloqotlarda fikrlar rang-barangligi paydo bo'layotgani diqqatga sazovor. Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o'zlarini ma'sul sezib, bu bahslarda daxldorlik tuyg'usi bilan ishritok etayotganini meni, ayniqsa, quvontiradi. Endi ikki og'iz og'iz so'z ommaviy axborot vositalari oraqali tarix mavzusini yoritish haqida. Bizning matbuotimiz, televideniyamiz ham tarixga oid maqolalar chop etganda, ko'rsatuvlar tayyorlanganda bir kishining fikrini yagona haqiqat sifatida qabul qilinishiga yo'l qo'ymasligi darkor. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim. Tarixiy voqealarni, shaxslar faoliyatini izohlash yo'li bilan odamlarni asl haqiqatdan ogoh etishimiz kerak. Chunki, biz shakllantirayotgan jamiyatimiz mafkurasi ham tarix buloqlaridan oziqlanadi. Yana bir muhim masala shuki, men "Tafakkur" jurnalidagi suhbatda ta'kidlaganimdek, siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham vacuum – bo'shliq paydo

bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ya'ni, agar o'z g'oyang bo'lmasa, o'z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixni o'zimiz tiklamasak, o'zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Yozish bilan cheklansa mayliku-ya, bizni, o'sib kelayotgan avlodni, hatto olimlarimizni ham yo'rig'iga solishga harakat qiladi. Men qaysi xalq qayerdan kelib chiqqan, kimning tarixi ko'hnaligi xususida bahs yuritish, bu borada bir millatni boshqa bir millatga qaram-qarshi qo'yishga mutlaqo qarshiman. Bu narsa bizga also kerak emas. Faqat bizning davlatimiz tarixini yoritishda o'zga g'oya humronlik qilishga yo'l qo'yib bermaslik bo'lmasligini ta'kidlamoqchiman. Bu masalada, ya'ni uzoq o'tmishimiz, tarixiy tomlarimiz bo'yicha o'z mustaqil fikrimizga ega bo'lishimiz shart. Tarixchi olimlarimiz, ilmiy muassalarimiz oldida turgan dolzarb vazifa shundan iborat.

XULOSA

O'zbekiston va u bilan birga markaziy osiyo mintaqasidagi boshqa davlatlar kechirayotgan murakkab g'oya keskin muammolar xafsizlik rivojlanishni ta'minlash barqarorlik va sobitqadamlik muammolari xaqida gapirish zarurati bomi

Yosh kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani shu muqaddas zaminni yana ham boy kuchli va qudratli xolda qabul qilib olishlari uchun milliy mafkura va g'oyaviy dunyoqarashni shakillantirish lozimki buda biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'usini xis etayotgan bo'lsak o'g'il-qizlarimiz kelajak avlodlar xam biga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini xis etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish fuqorolik burchimizdir

Ayni chog'da men ana shu hissiyot bilan birga har birimiz xalqimizga o'z mehnati bilan mamlakatimizni milliy mafkurasini va g'oyasini shakillantirishda o'z hissasini qo'shgan kishilarga samimiy minnatdorchilik tuyg'ularini his etishimizni juda-juda istar edim

Prizidentimiz I.A.Karimov tarixning ahamiyati xaqida maxsus ta'kidlab o'tadilar; Milliy mafkurani shakillantirishdagi eng kata manba bu xaqqoniy yoritilgan tarixdur. Tarixni bilmay turib mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. Yurtboshimiz xalqimizning tarixiy-madaniy an'analari va

insonparvarlik qadiryatlari asosida tarkib topayotgan milliy istiqlol mafkura zaruriyatni assoslab uning mohiyatini ochib beradi.

O'zbekistonning barcha fuqorolari manfaatlariga xizmat qiladigon milliy g'oya mamlakatimizni bugungi va istiqboldagi tarraqiyoti uning rivoji va gullab yashnashi bilan uzviy bog'landi. Bu xar bir fuqaro butun jamiyatning faol xarakat qilishining taqqazo etadi zero ular respublika mustaqilligi belgilab bergan maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish uchun safarbar etiladilar. Mustaqillik mafkurasi erkin jamiyat ko'rishining ma'naviy asoslarini ko'rsatib beradi bunday erkin jamiyat barcha fuqorolarning orzu-istagidir. Kishilar ongidagi bunday intilishning shakllanishini ham mafkuraning integratsiya birlashtiruvchi vazifasi belgilaydi. Bu borada tarixiy ongni shakillantirishning ahamiyati beqiyosdir. Xuquqiy davlatning va demakratik jamiyatning shakllanishda gumanitar ta'lim muxum o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov – “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” Toshkent “Sharq” 1998
2. I.A.Karimov – “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008
3. A. Sa’diyev – “ Maktabda tarix o’qitish metodikasi” Toshkent. “O’qituvchi” 1988
4. T. Toshpo’latov, Y.G’afforov – “Tarix o’qitish metodikasi” Toshkent 2002
5. I. A. Karimov. O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent. O‘zbekiston; 1992 yil, 23 - bet.
6. Internet ma’lumotlari